

**REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA TEMIR TANQISLIGI
ANEMIYASINING TARQALISHI VA TIBBIY-IJTIMOY AHAMIYATI**

PhD Asqarova N.A

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti katta o‘qituvchisi

Kanalova M.Q.

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti magistranti

KIRISH

Reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligi jamiyatning demografik holati, sog‘lom avlod tug‘ilishi hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ayollar salomatligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri qon tizimining fiziologik holati bo‘lib, ayniqsa kamqonlik (anemiya) reproduktiv yoshdagi ayollar orasida eng keng tarqalgan patologik holatlardan biri hisoblanadi [1;5]. So‘nggi yillarda anemiya nafaqat tibbiy, balki muhim ijtimoiy muammo sifatida ham baholanmoqda. Chunki ushbu kasallik ayollarning umumiy sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati, reproduktiv funksiyasi hamda hayot sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi [6;10].

Anemiya — bu qonda gemoglobin miqdori va eritrotsitlar sonining kamayishi bilan tavsiflanadigan patologik holat bo‘lib, organizm to‘qimalarida kislorod yetishmovchiligi rivojlanishiga olib keladi [2]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha reproduktiv yoshdagi ayollar orasida anemiya tarqalishi yuqori bo‘lib, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda ushbu ko‘rsatkich sezilarli darajada ortib bormoqda [10;11]. Anemiyaning eng ko‘p uchraydigan turi temir tanqisligi anemiyasi hisoblanadi. Bu holat organizmda temir moddasi yetishmovchiligi natijasida gemoglobin sintezining buzilishi bilan izohlanadi [3].

Reproduktiv yoshdagi ayollar organizmida fiziologik jarayonlarning faolligi sababli temir moddasiga bo‘lgan ehtiyoj boshqa guruhlariga nisbatan yuqori bo‘ladi. Hayz sikli davomida muntazam qon yo‘qotilishi, homiladorlik va laktatsiya davrida mikroelementlarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi ayollarda anemiya rivojlanish xavfini oshiradi [7]. Ayniqsa homiladorlik davrida ona organizmida temir sarfi keskin ko‘payadi. Natijada kamqonlik ona va homila salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, erta tug‘ruq, homila rivojlanishining sustlashuvi, kam vaznli chaqaloq tug‘ilishi hamda perinatal asoratlar xavfini oshiradi [4;9]. Temir tanqisligi anemiyasi reproduktiv salomatlikka ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. U ayollarda surunkali charchoq, bosh aylanishi, jismoniy faollikning pasayishi, immunitetning susayishi hamda mehnat qobiliyatining kamayishi bilan namoyon bo‘ladi [2;3]. Shu bilan birga, uzoq davom etuvchi anemiya gormonal muvozanat buzilishlariga, hayz siklining o‘zgarishlariga hamda reproduktiv funksiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin [8]. Ayrim ilmiy tadqiqotlarda anemiya va reproduktiv tizim kasalliklari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligi qayd etilgan [5].

Bugungi kunda anemiya rivojlanishida biologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Noto‘g‘ri va bir xil turdagi ovqatlanish, ratsionda temirga boy mahsulotlarning yetarli emasligi, surunkali kasalliklar, ekologik omillar hamda aholining ayrim qatlamlarida tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi kamqonlik rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda [5;7]. Ayniqsa reproduktiv yoshdagi ayollar orasida profilaktik tekshiruvlarning yetarli darajada olib borilmasligi kasallikning kech aniqlanishiga olib keladi [12]. So‘nggi yillarda anemiyani erta aniqlash va profilaktika qilish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgan bo‘lsa-da, ushbu muammo hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda. Zamonaviy ilmiy manbalarda reproduktiv yoshdagi ayollar orasida anemiyaning yuqori uchrashi ona va bola salomatligining asosiy xavf omillaridan biri sifatida baholanmoqda [6,10]. Shu sababli reproduktiv yoshdagi ayollarda anemiya tarqalishini o‘rganish, uning reproduktiv salomatlikka ta‘sirini baholash hamda samarali profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi

Mazkur tadqiqotning maqsadi reproduktiv yoshdagi ayollar orasida anemiya tarqalishini, uning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillarni hamda reproduktiv salomatlikka ko‘rsatadigan ta‘sirini o‘rganishdan iborat. Shu bilan birga, anemiyaning ayollar organizmida kechadigan fiziologik jarayonlar, homiladorlik va tug‘ruq bilan bog‘liq asoratlar rivojlanishidagi ahamiyatini baholash hamda kasallikni erta aniqlash va profilaktika qilish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish maqsad qilib qo‘yildi. Tadqiqot davomida reproduktiv yoshdagi ayollar orasida anemiyaning uchrash darajasi, uning klinik belgilari, tibbiy-ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi hamda reproduktiv salomatlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatish xususiyatlari o‘rganildi. Shuningdek, anemiyani kamaytirish bo‘yicha profilaktik skrininglar, to‘g‘ri ovqatlanish va dispanser nazoratining ahamiyatini ilmiy asoslash ham tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi.

Materiallar va usullar

Mazkur tadqiqot reproduktiv yoshdagi ayollar orasida anemiya tarqalishi va uning reproduktiv salomatlikka ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, kuzatuv (observatsion), tahliliy hamda retrospektiv usullarda olib borildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar tahlili bilan bir qatorda sog‘liqni saqlash muassasalarining statistik hisobot ma‘lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot obyekti. Farg‘ona viloyatidagi 18- 40 yoshdagi ayollar, jumladan reproduktiv yoshdagi hamda homilador ayollar guruhi tanlab olindi. Tadqiqotda statistik va analitik usullardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida ayollarning yoshi, ovqatlanish xususiyatlari, ijtimoiy holati, homiladorliklar soni hamda surunkali kasalliklari bilan bog‘liq ma‘lumotlar ham tahlil qilindi. Reprodukativ salomatlikka ta‘sirini baholash maqsadida homiladorlikning kechishi, tug‘ruq asoratlari, homila holati va umumiy somatik o‘zgarishlarga oid ma‘lumotlardan foydalanildi.

Natijalar

Tadqiqot davomida Farg‘ona viloyatida reproduktiv yoshdagi ayollar orasida anemiya tarqalishi va uning salomatlikka ta’siri o‘rganildi. 2024 yil davomida 18 yoshdan yuqori aholi orasida kamqonlik bilan ro‘yxatga olingan bemorlar soni 16 213 nafarni tashkil etdi. Shundan 14 429 nafari (89,0 %) ayollar hissasiga to‘g‘ri keldi. Bu ko‘rsatkich anemiya ayollar orasida, ayniqsa reproduktiv yosh davrida keng tarqalganligini ko‘rsatadi.

Yosh tarkibi bo‘yicha tahlil qilinganda, kamqonlik holatlarining asosiy qismi 18–40 yosh oralig‘idagi ayollar hissasiga to‘g‘ri kelishi aniqlandi. Jumladan, 18–29 yosh guruhida 5 715 nafar, 30–40 yosh oralig‘ida esa 4 735 nafar bemor qayd etildi. Ushbu yosh guruhlari umumiy anemiya holatlarining 72,4 % ini tashkil etdi. 65 yosh va undan yuqori yosh guruhida esa 1 085 nafar kamqonlik holati kuzatildi. Bu natijalar kasallikning asosan mehnatga layoqatli va tug‘ish yoshidagi ayollar orasida yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, homilador ayollarda anemiya ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lib, gemoglobin miqdorining pasayishi bilan homiladorlik asoratlari rivojlanishi ko‘proq kuzatildi. Xususan:

gemoglobin ≥ 110 g/l bo‘lgan ayollarda asoratlar kam uchradi;

gemoglobin 90–109 g/l oralig‘ida bo‘lgan ayollarda o‘rtacha darajada kuzatildi;

gemoglobin < 90 g/l bo‘lgan ayollarda erta tug‘ruq, homila gipoksiyasi va kam tana vaznli chaqaloq tug‘ilishi holatlari sezilarli darajada yuqori bo‘ldi.

Profilaktik tekshiruvlar davomida aniqlangan anemiya holatlari umumiy bemorlarning 48,6 % ini tashkil etdi. Bu esa skrining va dispanser nazoratining kasallikni erta aniqlashdagi muhim ahamiyatini ko‘rsatadi.

Ovqatlanish xususiyatlari o‘rganilganda, temirga boy mahsulotlarni yetarli iste‘mol qilmaydigan ayollarda anemiya ko‘rsatkichlari yuqori ekanligi aniqlandi. Ayniqsa go‘sht mahsulotlari, jigar, dukkakli ekinlar hamda yashil sabzavotlarni kam iste‘mol qiluvchi ayollarda temir tanqisligi anemiyasi ko‘proq uchradi.

Tadqiqot davomida anemiya bilan kasallangan ayollarda tez charchash, bosh aylanishi, umumiy holsizlik, ish qobiliyatining pasayishi va immunitet sustlashuvi kabi klinik belgilar keng tarqalganligi kuzatildi. Ayniqsa uzoq davom etuvchi kamqonlik holatlarida reproduktiv salomatlik bilan bog‘liq muammolar ko‘proq qayd etildi.

Yosh guruhlari bo‘yicha o‘tkazilgan statistik tahlil natijasida reproduktiv yoshdagi ayollarda anemiya ko‘rsatkichlari boshqa yosh guruhlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi ($\chi^2 \approx 148,3$; $p < 0,001$). Olingan natijalar reproduktiv yoshdagi ayollar orasida anemiya dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammo ekanligini tasdiqladi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari reproduktiv yoshdagi ayollar orasida anemiya keng tarqalgan dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammo ekanligini ko‘rsatdi. Tahlillar davomida kamqonlik bilan kasallanganlarning asosiy qismini ayollar tashkil etgani aniqlandi. Ayniqsa 18–40 yosh oralig‘idagi ayollarda kasallik ko‘rsatkichlarining yuqori bo‘lishi reproduktiv davrda organizmning temir moddasiga bo‘lgan ehtiyoji ortishi bilan bog‘liqdir. Hayz sikli,

20-May, 2026-yil

homiladorlik va laktatsiya davrida organizmda temir sarfining ko‘payishi ayollarda temir tanqisligi anemiyasi rivojlanish xavfini oshiradi.

Anemiya ayollar organizmiga ko‘p qirrali salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Gemoglobin miqdorining pasayishi natijasida organizm to‘qimalarida kislorod yetishmovchiligi yuzaga keladi. Bu esa surunkali charchoq, bosh aylanishi, umumiy holsizlik, mehnat qobiliyatining pasayishi hamda immunitetning susayishi bilan namoyon bo‘ladi. Uzoq davom etuvchi kamqonlik ayollarning reproduktiv funksiyasiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatib, hayz siklining buzilishi, gormonal nomutanosiblik va reproduktiv salomatlik bilan bog‘liq muammolar rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Homilador ayollar orasida anemiya alohida klinik ahamiyatga ega. Temir tanqisligi homiladorlik davrining kechishiga salbiy ta‘sir etib, ona va homila uchun turli asoratlar xavfini oshiradi. Kamqonlik homilada kislorod yetishmovchiligi, rivojlanishning sustlashuvi, kam vaznli chaqaloq tug‘ilishi hamda erta tug‘ruq kabi holatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli homiladorlik davrida gemoglobin ko‘rsatkichlarini muntazam nazorat qilish va profilaktik choralarni o‘z vaqtida olib borish muhim hisoblanadi. Tadqiqot davomida anemiya rivojlanishida ijtimoiy omillarning ham muhim o‘rin tutishi kuzatildi. Noto‘g‘ri va bir xil turdagi ovqatlanish, ratsionda temirga boy mahsulotlarning yetarli emasligi, ayrim oilalarda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitning pastligi hamda profilaktik tibbiy ko‘riklarning yetarli darajada tashkil etilmaganligi kamqonlikning keng tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa reproduktiv yoshdagi ayollar orasida sog‘lom ovqatlanish madaniyatining yetarli shakllanmaganligi mikroelementlar yetishmovchiligi xavfini yanada oshiradi.

Olingan natijalar reproduktiv yoshdagi ayollar orasida anemiyani erta aniqlash va oldini olish bo‘yicha kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Profilaktik skrininglarni kengaytirish, temir tanqisligini o‘z vaqtida korreksiya qilish, homilador ayollarni muntazam tibbiy nazoratga olish hamda sog‘lom ovqatlanishni targ‘ib qilish anemiya ko‘rsatkichlarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, aholining tibbiy savodxonligini oshirish va reproduktiv salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan profilaktik dasturlarni takomillashtirish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

XULOSA

Reproduktiv yoshdagi ayollar orasida anemiya keng tarqalgan dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari Farg‘ona viloyatida kamqonlik ko‘rsatkichlari ayniqsa reproduktiv yoshdagi ayollar orasida yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Kasallikning asosiy qismini ayollar tashkil etgani anemiyaning ayollar salomatligiga sezilarli salbiy ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Anemiya ayollar organizmida kislorod almashinuvining buzilishiga olib kelib, surunkali charchoq, mehnat qobiliyatining pasayishi, immunitet sustlashuvi hamda reproduktiv funksiyaning izdan chiqishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa homilador ayollarda temir tanqisligi anemiyasi ona va homila salomatligi uchun jiddiy xavf omili hisoblanib, homiladorlik asoratlari, erta tug‘ruq va kam vaznli chaqaloq tug‘ilishi xavfini oshiradi.

20-May, 2026-yil

Tadqiqot davomida anemiya rivojlanishida biologik omillar bilan bir qatorda noto‘g‘ri ovqatlanish, mikroelementlar yetishmovchiligi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va profilaktik tibbiy ko‘riklarning yetarli darajada tashkil etilmaganligi muhim rol o‘ynashi aniqlandi. Bu esa anemiyani nafaqat tibbiy, balki muhim ijtimoiy muammo sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalarga asoslanib, reproduktiv yoshdagi ayollar orasida anemiyani kamaytirish uchun profilaktik skrininglarni kengaytirish, temir va vitaminlarga boy ovqatlanishni targ‘ib qilish, homilador ayollarni muntazam dispanser nazoratiga olish hamda aholining tibbiy savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, ona va bola salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan profilaktik dasturlarni takomillashtirish anemiya ko‘rsatkichlarini kamaytirishda samarali omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Axmedov A.A., Karimova D.K. Temir tanqisligi anemiyasining reproduktiv salomatlikka ta’siri // *Jamoat salomatligi va boshqaruv.* – 2022. – №2. – B. 37–41.
2. Camaschella C. Iron deficiency anemia // *New England Journal of Medicine.* – 2015. – Vol. 372, №19. – P. 1832–1843.
3. Lopez A., Cacoub P., Macdougall I.C., Peyrin-Biroulet L. Iron deficiency anaemia // *The Lancet.* – 2016. – Vol. 387, №10021. – P. 907–916.
4. Norboyeva Z.X., Qodirova M.A. Homilador ayollarda anemiya va uning asoratlari // *Tibbiy biologiya axborotnomasi.* – 2023. – №1. – B. 52–57.
5. Rasulova M.Sh., Yo‘ldosheva N.T. Reprodukativ yoshdagi ayollarda anemiya tarqalishining zamonaviy jihatlari // *Tibbiyot va amaliyot.* – 2021. – №4. – B. 44–48.
6. Stevens G.A., Finucane M.M., De-Regil L.M. et al. Global, regional, and national trends in haemoglobin concentration and prevalence of anaemia in women // *The Lancet Global Health.* – 2017. – Vol. 5, №1. – P. 16–25.
7. Suyunova R.K., Kamilov D.Y. Tug‘ish yoshidagi ayollarda temir tanqisligi anemiyasi va profilaktika choralari // *Modern education and development.* – 2025. – Vol. 39, №4. – B. 38–44.
8. Urokovna N.F., Mamatkulovich K.Y. Reprodukativ yoshdagi ayollarda kamqonlik va uning ahamiyati // *American Journal of Applied Medical Science.* – 2025. – Vol. 3, №5. – P. 13–21.
9. United Nations Children's Fund. *Maternal and Child Nutrition Report.* – New York: UNICEF; 2022.
10. World Health Organization. *Anaemia in women and children.* – Geneva: WHO; 2023.
11. World Health Organization. *Global anaemia estimates, 2021 edition.* – Geneva: WHO; 2021.

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-May, 2026-yil

12.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. O‘zbekiston Respublikasi
sog‘liqni saqlash statistikasi. – Toshkent; 2024.